

## MUSIQIY TA'LIM VA TARBIYADA ZAMONAVIYLIK

**Mahammatov Abdumannon, Jumaev Axmadjon -**

JDPI katta o'qituvchilar.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqiy talimning ta'lim – tarbiya jarayonida zamonaviylik jihatlarini tadbiq etishning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** talim, tarbiya, qonun, davlat talim standarti, zamonaviylik, musiqa, davlat attestatsiyasi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi "Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlari barcha fanlar qatori musiqiy fanlar o'qitilishiga ham Davlat ta'lim standarti talablari quydi, shu asosda o'quv rejalar ishlab chiqish va o'quv ishlarini tashkil etishni taqazo etdi. Hozirgi davrda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, yani maktabgacha ta'lim muassasalaridan to Oliy o'quv dargohlarida o'qitiladigan musiqiy fanlargacha ushbu talab asosida o'qitilmoqda.

Bu ishlar o'z samarasini ko'rsatib, boshqa fanlar qatori musiqiy fanlarni o'qitish ishlari ham bir muncha yaxshilandi. Standart talablari va shu asosda e'lon qilishgan namunaviy dastur 2001 yildan boshlab amalga oshirila boshlasa-da, uning xayotga tadbiq etilishi juda qiyin kechdi. Chunki, o'sha yillarda o'quv dargoxlari mutaxassis kadrlar, o'quv qurollari, cholg'u sozlari, adabiyotlar va boshqa ko'pgina masalalarda juda ham nochor edilar.

Ishlarni jonlantirish uchun o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash hamda pedagogika oliygohlari professor-o'qituvchilari jonbozlik ko'rsatdilar. Ular tumanlarda mahsus o'quv seminar-yig'ilishlari o'tkazib, ta'lim standarti mohiyati, yangi namunaviy uquv dasturi mazmuni bilan musiqa fani o'qituvchilarini yaqindan tanishtirdilar. O'zlari namuna sifatida ochiq darslar o'tib, zamonaviy dars o'tishning oldingi eski uslublaridan qanday farq qilishi to'g'risida to'laqonli tushuncha berdilar.

O'tkazilgan bunday seminar-kengashlar va ochiq darslarning tashkil qilinishi o'z samarasini bera boshladi. Endilikda musiqa fani o'qituvchilari dars jarayonida musiqiy faoliyatning besh turi, ya'ni kushik kuylash musiqa tinglash, retmik harakatlar bajarish va musiqa savodini 45 minutlik dars jarayonida qanday qo'llash yo'l - yo'riqlarini o'rganib oldilar. Bizga ma'lumki, musiqa fani maktabgacha ta'lim muassasalaridan to oliy ta'lim dargohigacha bo'lgan ta'lim tizimida o'qitiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bu ta'lim musiqa mashg'ulotida beriladi. Umumta'lim zamonaviy musikiy talim va tarbiya mavzusiga o'tadi, maktablarida esa «musiqa madaniyati» darslarida va fan to'garaklari faoliyati jarayonida beriladi. O'rta maxsus kasb-hunar o'quv dargohlarida esa, alohida

musiqiy yoʻnalish boʻlib, bu yoʻnalish Xalk taʼlimi va Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligida maxsus mutaxassislik kodi bilan raqamlangan. Xuddi shuningdek Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi hamda Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan oliy taʼlimda ham ushbu yoʻnalish maxsus shifr bilan belgilangan boʻlib, u 5111000-Musiqiy taʼlim, deya yuritildi. Bunday kod raqamlari, maxsus shifrlar barcha taʼlim soxalari uchun belgilangan boʻlib u fanlarga emas kasb-hunarga yoki mutaxassislik turiga koʻra belgilangan. Demak, har bir kasb-hunar sohasi, yoki mutaxassislik turi oʻz yoʻnalishiga muvofiq keladigan fanlar doirasida bilim olmogʻi lozim. Oliy va Oʻrta Maxsus taʼlim vazirligi taʼsis etgan oʻquv rejada har bir mutaxassislik boʻyicha oʻqitiladigan fanlar va ular uchun ajratilgan dars soatlari miqdori oʻquv yili boʻyicha haftalarga boʻlingan holda aniq va tushunarli tarzda koʻrsatilgan. Oʻquv rejaning bosh qismida oʻquv yilidagi haftalar, oʻquv jarayoni, pedagogik amaliyot va Davlat Attestatsiyasi muddatlari koʻrsatilgan boʻlsa, rejaning oxiridagi ilova qismida mutaxassislikning oʻziga xos oʻquv jarayoni, uning olib borilish shakli va boshqa muhim maʼlumotlar koʻrsatilgan.

Bundan tashqari Respublika tayanch oʻquv dargoxlarida kasb-hunar va mutaxassisliklar boʻyicha oʻqitiladigan barcha fanlar uchun maxsus namunaviy oʻquv dasturlari Ushbu fanlarga quyilgan Davlat taʼlim standartlari talabalari asosida tayyorlanib, Oliy va Oʻ.M.T.Vazirligi tomonidan tasdiqlangan holda joylardagi oʻquv dargoxlariga tarqatilgan. Oʻquv rejada belgilangan fanlarga berilgan dars soatlarining bajarilishi va Ushbu dars soatlarining oʻquv dasturi asosida oʻqitilishi Oliy va Oʻrta maxsus taʼlim hamda xalk taʼlimi vazirliklari tomonidan nazorat qilinadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida oʻqitiladigan musiqa mashgʻulotlari hamda umumtaʼlim maktablarida oʻqitiladigan musiqa madaniyati fanlari oʻqitilishida musiqiy fanlar umumlashtiriladi, yaʼni ushbu mashgʻulot va dars jarayonlarida koʻpgina musiqiy fanlar, jumladan musiqa nazariyasi, solfjio, jamoa qushiqchiligi, hor ijrochiligi, musiqa tarixi, ritmika, cholgʻu ijrochiligi, direjyorlik, vokal ijrochiligi, musiqa shakli, garmoniya, musiqa adabiyoti kabi koʻplab fanlar tadqiqot yoʻnalishlari bir vaqtda yoki birin ketin oʻquv jarayoniga tadbiiq etiladi. Demak, ushbu oʻquv muassasalarida dars beruvchi oʻqituvchi musiqiy taʼlim yoʻnalishida oʻqitiladigan, yuqorida biz nomlarini sanab oʻtgan fanlarni puxta oʻzlashtirgan boʻlishi kerak. Aks holda dars va mashgʻulotlarning samaradorligi kafolatli emas. Endilikda ular dars oʻtishning eski, almisoqdan qolgan uslublaridan voz kechib, oʻz darslarini Davlat taʼlim standarti va namunaviy oʻquv dasturi talablari asosida tashkil qila boshladilar. Lekin, shuni aytish kerakki,hamma joyda, hamma xududlarda bu ish xali muvaffaqiyatli amalga oshirilayapti, deb aytish qiyin. Bu ishda hali anchagina hal qilinishi lozim boʻlgan muammolar mavjud. Muammolarning asosiylari quyidagilar:

1. Ko'p yillar davomida o'quv yurtlarining (bog'chadan oliygohgacha ), cholg'u, sozlari bilan ta'minlanmaganligi, o'quv yurtlarida mavjud cholg'u sozlar yillar o'tishi davomida foydalanishga yaroqsiz holga kelganligi, ularni ta'mirlash uchun maxsus ustaxonalarning yetishmasligi, cholg'u sozlarini saqlash qoidalariga rioya qilinmasligi va hokzo.
2. Mutaxassis kadrlar yetarli emasligi, mavjud o'qituvchi kadrlardan ko'pchiligining ma'lumoti yetishmasligi, yoki mutaxassisligi to'g'ri kelmasligi (ko'pchilik maktablar mutaxassis yetishmasligiga sababli musiqiy fanlarni o'qitishni boshqa fan o'qituvchilari zimmasiga yuklaydilar).
3. Maktablarga musiqiy fanlarni o'qitish uchun ajratilgan dars soatlari kamligi va shu sababli turli muammolar paydo bo'layotganligi (1) Dars soatlari kam bo'lganligi sababli mutaxassis o'qituvchilar ikki va undan ortiq joylarda ishlashga majbur bo'lmoqda. (2)Maktabda dars soati kam bo'lgan o'qituvchilarga past nazar bilan qarash, ijtimoiy tengsizlik, ya'ni birinchi darajali, yoki ikkinchi darajali fanlar, deya tabaqalashtirish paydo bo'lganligi.

Haqiqatdan musiqiy ta'lim sohasida, ayniqsa umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarida bunday muammolar mavjud, lekin vaqt o'tishi bilan bunday muammolar o'z yechimini topmoqda. Masalan, musiqiy adabiyotlarga bulgan ehtiyoj yil sayin qondirib borilmoqda. Mutaxassislar bilan ta'minlanish darajasi ham o'z yechimini topmoqda. O'tkazilayotgan attestatsiya va akkreditatsiyalar muassasalarda kadrlarni joy-joyiga qo'yib borishda katta rol o'ynamoqda.

XX-asrda dunyo bo'ylab xalq xo'jaligi va ishlab chiqarish nixoyat darajada texnikalashib ketdi. Shu sababli dunyo xalqlari tomonidan bu asr "texnika asri" deb tan olindi. Albatta, bunday taraqqiyot bizning mamlakatimizni, shu jumladan ta'lim tizimimizni ham chetlab o'tmaydi. Darslarda foydalanish uchun o'quv-laboratoriya jihozlari, radiotexnika, lingafon, epidoskop, dioskop, kino aparatlar va boshqa ko'plab texnik vositalar, hatto musiqali doskalar bilan ta'minlangan o'quv dargohlari mavjud edi.

Inson shaxsiy xayotida musiqaning ham o'ziga xos muxim o'rni bor. U insonlarni ezgulikka, mehr-oqibatga da'vat etuvchi, ta'bir joiz bo'lsa insoniylikka undovchi vositadir. Musiqaga sidqi-dildan oshno ko'ngil har doim ezgulikka moyil bo'ladi. U jaxolatga qarshi quroldir. Inson tugulgandan to umirining so'ngi kunlarigacha shodlik-qayg'usida, hursandchilik va anduhlarida, hullas yaxshiyumon kunlarida u bilan hamnafas va hamdarddir. Inson tug'ilgandayoq ona allasi bilan u inson qalbidan joy oladi. Mehnat jarayonida, to'y-hasham va boshqa marosimlarda u insonga ko'tarinki kayfiyat, ruhiga orom bag'ishlaydi.

Bundan tashqari musiqa tarbiya vositasi bo'lib, avvalo u insonlarni nafosat, go'zallikni his qilishga o'rgatadi. Shuning uchun musiqa estetik tarbiya turi hisoblanadi. Estetik tarbiya esa shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zaruriy shartlaridan biridir.

Shuningdek, musiqa ahloqiy tarbiya bilan ham bevosita mustahkam bog'liq bo'lib, axloq-odob ezgulikning ko'rinishlari hisoblanadi va musiqa insonni ezgulikka chorlash bilan birga axloq-odobga ham chorlaydi.

**Bayt:**

Ey o'g'il haddingda tur  
Otang seni sotganda ham  
Mehribon, mushfiq onangning  
So'zlari botganda ham

Chunki yaxshi qo'shiq inson qalbidan tezda joy oladi va inson uni beihitoyor ko'nglida takrorlaydi, yoki hirgoyi qiladi. Shunda u so'zlar ma'nosini chaqa boshlaydi, ya'ni fikrlaydi. Shu orqali u ezgulik sari qadam tashlaydi. Insonlarni axloq-odobga chaqiruvchi, nasihatomuz qo'shiqlar barcha xalqlar, barcha millatlar musiqa madaniyatida mavjuddir.

Musiqaning inson xayotidagi o'rni to'g'risida juda ko'p va xo'p gapirish mumkin. U jins tanlamaydi, irq tanlamaydi, yosh tanlamaydi. Yaxshi musiqa, yaxshi qo'shiq, yaxshi raqs, yaxshi dramatik asarni har qanday yoshdagi, jinsdagi, yoki irqdagi kishi berilib tinglaydi va tomosha qiladi.

Shuningdek, musiqaning jamiyat ijtimoiy xayotidan roli ham beqiyos kattadir. U jamiyat miqyosidagi bayram tadbirlari, siyosiy va ijtimoiy tadbirlar hamda sport tadbirlari o'tkazishda o'zining muxim hissasini qo'shadi. Insonlarni jamiyatning chaqiriqlariga javob berishga da'vat etadi (A.Aleksandrovning "Svyashennaya voyna" qo'shig'i II jaxon urushi davrida xar bir fuqaro qalbini larzaga solgan va fashist bosqinchilariga qarshi kurashga da'vat etgan edi).

Bundan tashqari musiqa insonlarni jamiyat ijtimoiy axloq normalariga rioya qilishga chaqiradi. Jamiyat axloq normalari ichida kishi-kishiga do'st, o'rtoq va birodar bo'lishi lozim. Musiqa esa avvalo insonlar o'rtasidagi, qolaversa elatlar, millatlar o'rtasida do'stlik va birodarlikka chorlaydi. Bunga xayotdan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin. Bu ishda asosiy rolni davlat radio va televideniyesi, qolaversa o'tkazilayotgan ijtimoiy-siyosiy va musiqiy tadbirlar teatr va kino san'ati o'ynaydi.

Shuni aytish kerakki, yaratilayotgan musiqiy asarlar va ommalashib ketgan kuy-qo'shiqlar xarakteri ko'proq xalqning turmish tarziga bog'liqdir, ya'ni xalqning turmish - tarzi qanchalik farovon bo'lsa ko'proq sho'x va o'ynoqi kuy-qo'shiqlar ommalasha boradi. Aksincha xalqning turmushi qanchalik qashshoq bo'lsa ko'proq vazmin, mungli kuy-qo'shiqlar ommalasha boradi. Bunga xalqimiz

tarixi davomida yaratilgan maqomlar, mumtoz kuy-ko'shiqlarimiz misol bo'la oladi. Demak, u ma'lum ma'noda xalq xayotini ham ifodalaydi. Boshiga tashvish tushgan inson sho'x - shodon kuy-ko'shiqlarni tinglashni xoxlamay qoladi. Biz mana shu texnik jixozlarni saqlab qolgan xolda XXI - asrga qadam qo'ydik. Endilikda o'quv dargohlari kompyuter texnikasi bilan ta'minlanmoqda. Ilg'or o'quv dargohlari kompyuter orqali to'g'ridan - to'g'ri internet, Ziyonet kabi axborot tarmoqlariga ulangan va kerakli ma'lumotlarni xoxlagan paytda olish imkoniyatiga ega. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishning muxim omili xisoblanadi. Bunday elektron vositalar musiqiy ta'limga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatib, uning samarasini oshirishga, yosh avlod musiqiy dunyoqarashlarining xar tomonlama rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Musiqiy fanlarni o'qitish xam boshqa fanlar qatori ilg'or pedagogik texnologiyalarga, dars o'tishning noan'anaviy uslublari, axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslanmoqda.

Pedagogik texnologiya - muayyan loyixa asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan xamda ushbu maqsadning natijalarini kafolatlovchi pedagogik faoliyatning mazmuni bo'lib, uning asosiy muammosi shahsni rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishdan iboratdir.

Pedagogik jarayonni loyixalash esa quyidagi sakkiz bosqichda amalga oshiriladi:

1. Mavzuga doir material to'plash.
2. Ta'lim maqsadi va vazifalarini belgilash.
3. Ta'lim mazmunini ishlab chiqish.
4. Ta'lim shakli, metod va vositalarini tanlash.
5. Mavzuni o'rganish uchun yetarli bo'lgan vaqtni aniqlash.
6. Mashqlar tizimini ishlab chiqish.
7. Nazorat savollari va test variantlari ishlab chiqish.
8. Loyixani o'quv jarayoniga tadbiiq etish.

Jarayonni mana shu tarzda loyixalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko'rinishlaridan biridir. Pedagogik jarayon loyixasi esa ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishda o'z aksini topadi. Ta'lim jarayoni esa quyidagicha texnologiyalashtiriladi:

1. Pedagogik jarayonni loyixalashtirish
2. O'quvchilar faoliyatini tashxislash
3. Pedagogik jarayonni tashkil etish, ya'ni loyixani amalda qo'llash
4. Pedagogik jarayonning samarasini ta'minlash
5. O'quvchilar faoliyatini naorat qilish

Bu ishda o'qituvchining vazifasi o'quv maqsadiga muvofiq o'quvchining ichki intilishi, rag'batini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb yetadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI:**

1. I.A.Karimov. Bunyodkorlik yo'lidan. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti. 1996-yil.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat” nashriyoti. 2008-yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: O‘zbekiston. 2016.
4. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. T: O‘zbekiston. 2017.
5. Mirziyoyev Ah. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. T: O‘zbekiston. 2017.
6. O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogika texnologiyalarning tabiiy asoslari. –T.: “Fan” nashriyoti. 2006-yil.
7. V.N.Maksimova. Mejpredmetnye svyazi v protsesse obucheniya. –M.: “Prosvishenie”. 1988-god.
8. S.X.Yo‘ldosheva. O‘zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 1985-yil.
9. T.Ye.Solomonova. O‘zbek musiqasi tarixi. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 1981-yil.
10. I.Rajabiy. Maqomlar masalasiga doir. –T.: “Badiiy adabiyot” nashriyoti. 1963-yil.
11. J.To‘lenov, Z.G‘afurov. Falsafa. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti 1997-yil.
12. B.S.Abdullaeva. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida. Uzluksiz ta'lim. –T.: 2005-yil. №1-son.